# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 63610 на приобретение Ойкул, Дарбанд-1 ва Дарбанд-2 насос станцияларнинг энергетика хўжалигининг электр жихозларини профилактик синовдан ўтказиш, ишга тушириш-созлаш (наладка), капитал таъмирлаш ишлари

Способ проведения электронный

Дата 11.04.2022

Время рассмотрения 11.04.2022 19:05

Конкурсная комиссия Аму-Сурхон ирригация тизимлари хавза бошкармаси таркибидаги вилоят насос станциялари ва энергетика бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | KUCHKINOV TURAKUL TASHBAYEVICH | Direktor birinchi o'rinbosari | Аму-Сурхон ирригация тизимлари хавза бошқариш |
| **Секретарь комиссии** | BOLTAYEV ABDIQAXXAR AXMATOVICH | Етакчи мутахассис | Аму-Сурхон ИТХБ хузуридаги НС ва ЭБ |
| **Член комиссии** | MIRZAYEV XODJAMQO'L BABAQULOVICH | ИЧБ бошлиги | НС ва ЭБ |
| **Член комиссии** | XUDAYKULOV XAYDAR KUDRATOVICH | Тизим бошлиги | НС ва ЭБ |
| **Член комиссии** | ABDUALIMOV JAVLONBEK RASHIDOVICH | Бош хисобчи | Ам Сурхон ИТХБ хузиридаги НС ва ЭБ |
| **Член комиссии** | SAFAROVA GULCHEXRA SOTTOROVNA | Хукукшунос | Аму-Сурхон ИТХБ хузуридаги НС ва ЭБ |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 11.04.2022 года № лота 63610.
Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 20

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуги по капитальному ремонту электродвигателя** |
| Подробное описание | Ойкул, Дарбанд-1 ва Дарбанд-2 насос станцияларнинг энергетика хўжалигининг электр жихозларини профилактик синовдан ўтказиш, ишга тушириш-созлаш (наладка), капитал таъмирлаш ишлари |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 200 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 200 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Инсофсиз етказиб берувчилар руйхатида йуклиги тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **BOTIOMETRIK MARKAZ** | 10 | 10 | 5 | Экспертная | | |
| **OOO NALADKA MASTER STROY** | 10 | Инсофсиз етказиб берувчилар руйхатида йуклиги тугрисида маълумотнома | 4 | Экспертная | | |

Критерий №2 Бажариладиган ишларнинг умумий кийматининг 20% микдорида банк хисоб ракамида маблагларининг мавжудлиги хакида маълумотнома банк томонидан мухр ва имзоланган холда

Тип: Текстовое значение

Описание: Бўлиши шарт

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **BOTIOMETRIK MARKAZ** | 10 | 10 | 5 | Экспертная | | |
| **OOO NALADKA MASTER STROY** | 10 | Маълумотнома | 4 | Экспертная | | |

Критерий №3 Иш бажарувчи ташкилотнинг солик мажбуриятларидан карздорлиги йуклиги хакидаги маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Бўлиши шарт

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **BOTIOMETRIK MARKAZ** | 10 | 10 | 5 | Экспертная | | |
| **OOO NALADKA MASTER STROY** | 10 | Маълумотнома | 4 | Экспертная | | |

Критерий №4 Ушбу ишларни бажаришда катнашадиган ишчи ходимларнинг 3 йилдан ортик ишлаганлиги тугрисида маълумотнома, мехнат шартномаси, буйрукдан кучирма, молиявий натижа, шунга ухшаш ишларни 3 йи
давомида бажарганлиги тугрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Бўлиши шарт

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **BOTIOMETRIK MARKAZ** | 10 | 9.9 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №5 Кархона балансида мавжуд техникалар ва ишлатиладиган асбоблар тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Бўлиши шарт

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| BOTIOMETRIK MARKAZ | 10 | 9.9 | 5 | Экспертная | | |
| ООО NALADKA MASTER STROY | 10 | МАЪЛУМОТ | 4 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| BOTIOMETRIK MARKAZ | 200 000 000.00 | 197 177 939.43 | 07.04.2022 11:04:26 | 100.00 |
| ООО NALADKA MASTER STROY | 200 000 000.00 | 198 675 324.00 | 08.04.2022 13:11:51 | 99.25 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| BOTIOMETRIK MARKAZ | Прошел | 100 | 100 |
| ООО NALADKA MASTER STROY | Прошел | 99.25 | 99.25 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 63610 от 11.04.2022 года на приобретение Ойкул, Дарбанд-1 ва Дарбанд-2 насос станцияларнинг энергетика хўжалигининг электр жихозларини профилактик синовдан ўтказиш, ишга тушириш-созлаш (наладка), капитал таъмирлаш ишлари определила победителем:

BOTIOMETRIK MARKAZ
204104881

и резервный исполнитель: ООО NALADKA MASTER STROY (302572839)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| Член комиссии | SAFAROVA GULCHEXRA SOTTOROVNA | Согласен | |
| Председатель комиссии | KUCHKINOV TURAKUL TASHBAYEVICH | Согласен | |
| Член комиссии | MIRZAYEV XODJAMQO‘L BABAQULOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | XUDAYKULOV XAYDAR KUDRATOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | ABDUALIMOV JAVLONBEK RASHIDOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

## XIZMAT KO'RSATISh ShARTNOMASI № 63610

«13» 04 2022 yil Termiz shahri.

"Botiometrik markaz" DUK, bundan buyon «Ish bajaruvchi» deb ataluvchi, rahbari I.Sharipov, Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan va Amu-Surxon ITHB huzuridagi NSEB, bundan buyon «Buyurtmachi» deb ataluvchi, rahbari A.Abduraimov, Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan kuyidagilar tugrisida shartnoma tuzadilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. «Ish bajaruvchi» «Buyurtmachi» tomonidan buyurtma qilingan ish hajmini bajarib beradi, «Buyurtmachi» esa ish hajmi bo'yicha bajarilgan (xizmatlar) ishlarini qabul qilib, mazkur shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

| № | Ish (xizмат)lar nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Narxi | Umumiy summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Oyko'l, Darband-1 va Darband-2 nasos stansiyalarning energetika xo'jaligining elektr jihozlarini profilaktik sinovdan o'tkazish, ishga tushirish-sozlash (naladka), kapital ta'mirlash ishlari | xizmat | 1 | 197177939,43 | 197177939,43 |
| | Jami | | | | 197177939,43 |

1.2. Mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan "xizmatlar"ning soni va shartnomaviy narxlarning kelishuv dalolatnomasi 1-ilovaga muvofiq keltiriladi.

### 2.Bajariladigan ish hajmining narxi va umumiy qiymati

2.1. Bajariladigan ish hajmining umumiy qiymati Respublikamiz milliy valyutasi so'mda belgilanadi.

2.2. Shartnoma umumiy summasi 197 177 939,43 (bir yuz to'qson yetti million bir yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz so'm 43 tiyin, QQS bilan) so'mni tashkil qiladi.

2.3. Bajariladigan ishning qiymati, narx oshganligi natijasida oz'zgarganda, «Buyurtmachi»ga oldindan xabardor qilib, o'zgargan narxini asoslagan holda ish bajariladi.

2.4. «Buyurtmachi» o'zgargan narxlar asosida qo'shimcha to'lovlarni byudjetda ko'rsatilgan limit doirasida shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzilishi asosida amalga oshiradi.

### 3. To'lov shartlari

3.1. Buyurtmachi shartnoma to'liq qiymatining 30%i miqdorida 10 bank kunida «Ish bajaruvchi»ning maxsus hisob raqamiga (so'mda) oldindan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. To'lik xizmatlar (ishlar) bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasi (hisob faktura) asosida 10 bank kunida qolgan 70% to'lov «Ish bajaruvchi»ning maxsus hsob raqamiga o'tkazib beriladi.

3.3. «Buyurtmachi» tomonidan mazkur shartnomaning 3.1. bandi talablari bajarilmagan taqdirda «Ish bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini bajarmaslikga haqli bo'ladi.

3.4. «Buyurtmachi» to'lovlarni bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat, akt dalalatnomasi, hisob-faktura)ga asosan shartnomadagi umumiy summadan chiqmagan holda amalga oshiriladi.

### 4. Ishning bajarilish tartibi

4.1. Shartnomaning umumiy summasidan chiqmagan holda «Ish bajaruvchi» shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq bajarishi shart.

4.2. Shartnomaning 3.1. bandiga asosan pul mablag'lari «Ish bajaruvchi»ning hisob raqamiga o'tkazilgandan so'ng 5 bank ish kunida shartnomada ko'rsatilgan ish (xizmat)lar bajarilishi shart.

4.3. Bajariladigan ish hajmi shartnomaning umumiy summasidan oshsa «Buyurtmachi» va «Ish bajaruvchi» tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qarori talablari asosida byudjet mablag'lari doirasida o'zgartirish kiritishi yoki bekor qilinishi mumkin.

4.4. Shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini «Ish bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng ish to'liq bajarilgan hisoblanadi.

### 5. Tomonlarning majburiyatlari

5.1. « Ish bajaruvchi» majburiyatlari:

• Oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng, shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini bajarishni boshlaydi.

• «Ish bajaruvchi» ishlarni sifatli va belgilangan muddatlarda bajarilishini ta'minlaydi.

• Ish jarayonida «Buyurtmachi» aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etib boradi.

5.2 «Buyurtmachi» majburiyatlari:

• Bajarilgan ish hjmini qabul qilib olguncha «Ish bajaruvchi» ishtirokida bajarilgan ishni obdon ko'zdan kechiradi va uning sifatiga, yaroqliligiga e'tibor beradi;

• Agar bajarilgan ish talabga javob bermasa, ya'ni sifatsiz bo'lsa, «Buyurtmachi» qabul qilmaslikka va sifatsiz bajarilgan ish qismini qaytadan to'lik, sifatli, bajarib berishini talab qilishga haqli bo'ladi.

• Bajarilgan ish hajmi «Buyurtmachi» tomonidan to'lik qabul qilib olingandan so'ng «Ish bajaruvchi»ga shartnomada ko'rsatilgan summaning qolgan qismini to'lik o'tkazib berishi shart.

### 6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va 29.08.1998-yildagi 670-1-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunining 25-32 bandlari bo'yicha javobgar bo'ladilar.

6.2. To'lovlar muddati kechiktirilganda, «Buyurtmachi» kechiktirilgan har bir kun uchun 0.05% miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.3. Shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini o'z vaqtida bajarilishini kechiktirganligi uchun «Ish bajaruvchi» kechiktirilgan har bir kun uchun 0.05% miqdorida, lekin shartnomaning umumiy summasini 50% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.4. Bajarilgan ish hajmi «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilingandan keyin ikki tomonning kelishuviga binoan ___ oy muddatga javobgarlik «Ish bajaruvchi» tomonida qoladi.

6.5. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi taraflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

6.6. Shartnomani bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki bir taraflama o'zgartirish kiritishga yo'l quyilmaydi.

## 7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma bo'yicha tomonlar shartlarni bajarmagan taqdirda, javobgar tomon keltirilgan moddiy va ma'naviy zararlarni qoplaydi.

7.2. Tomonlar o'rtasida shartnomani tuzishda, bajarilishida, o'zgartirish va bekor qilishda yetkazilgan zararlarni qoplashda yuzaga keladigan nizolar ogohlantirish va da'vo xatlari tartibida, agarda murosaga kelinmaganda Iqtisodiy Sud orqali hal qilinadi.

## 8. Korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa shartlar

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora berishni taklif qilmaydi, tovlamachilik qilmaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora ya'ni hodimi o'z hizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlatga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2. Ikki tomonning o'zaro yozma kelishuviga asosan mazkur shartnomaga kiritiladigan o'zgarish va qo'shimchalar qonuniy kuchga ega bo'ladi. O'zgarish va qo'shimchalar shartnomaga ilova qilinishi ham mumkin. Qilingan ilova ikki tomonning muhri va imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart.

8.3. Bir tomonlama shartnomani bekor qilishga to'lov shartlari bajarilmaganligi va mahsulot yetkazib berish tartiblari buzilganligi asos bo'ladi.

8.4. Shartnomada ko'rsatilgan mablag'dan ortiqcha bajarilgan ish hajmining mablag'ini buyurtmachi to'lab berishni o'z zimmasiga olmaydi.

## 9. Fors- major

9.1. Agar shartnoma tuzilgandan so'ng ikki tomon o'z majburiyatlarini g'ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarilmasa, hech qaysi tomon to'la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

## 10. Shartnomaning amal qilish muddati

10.1. Mazkur shartnoma Gaznachilik bo'limida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va «31»dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

10.2. Mazkur shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tomon uchun ham teng kuchga ega bo'lib, bank hisob-kitoblarini amalga oshirishga asos bo'ladi.

## 11. Tomonlarning yuridik manzili

| "ISh BAJARUVChI" | "BUYuRTMAChI" |
| --- | --- |
| Tashkilot nomi : "Biotiometrik markaz" DUK<br><br>Manzil: Toshkent shahri Choshtepa ko'chasi 21-a uy<br>Telefon: 71-250-46-64<br>Faks: 71-250-45-05<br>STIR kodi: 204 104 881<br>OKED: IFUT: 71120<br>X/R : 2020 8000 9041 9554 9001<br>Bank: OAKB Turon bank<br>MFO: 00446<br><br>Direktor: ________ . Sharipov<br>(imzo)<br><br>M.O' | Tashkilot nomi: Amu-Surxon ITHB huzuridagi NSEB<br><br>Manzil: Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Yoshlik ko'chasi, 8-uy<br>Tel/faks: 76-221-02-74, 76-221-04-42<br>STIR kodi: 200 475 210<br>OKED: IFUT: 01613<br>Buyurtmachining G'azna shaxsiy hisobvarag'i:<br>1000 2186 0224 0170 4240 2170 005<br>G'aznachilik nomi: Surxondaryo viloyati Faznachiligi<br>G'aznachilik bo'linmasi INN raqami: 201122919<br>Yagona G'aznachilik hisobvaraqlari (YaG'H):<br>23402000300100001010, MFO: 00014,<br>Bank: XKKM MB Toshkent sh BB<br><br>Boshliq ________ A.Abduraimov<br>(imzo)<br><br>M.O' |

Yurist vizasi: Men NS va EB ________ mansabdor shaxsi ushbu shartnoma loyihasi
(korxona, tashkilot, muassasa nomi)
amaldagi O'zbekiston Republikasi Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim.

«13» 04 2022 yil / ________ / G. Safarova

*Ilova-1*

**ShARTNOMA NARXLARINING KELISHUV DALOLATNOMASI**

Biz quyida imzo qo'yuvchilar, "Buyurtmachi" Amu-Surxon ITHB huzuridagi NSEB nomidan, boshlig'ic A.Abduraimov bir tomondan va "Bajaruvchi" "Botiometrik markaz" DUK nomidan, direktori I.Sharipov ikkinchi tomondan, quyidagi spesifikasiyaga asosan Oyko'l, Darband-1 va Darband-2 nasos stansiyalarning energetika xo'jaligining elektr jihozlarini profilaktik sinovdan o'tkazish, ishga tushirish-sozlash (naladka), kapital ta'mirlash ishlarining shartnomaviy narxini 197 177 939,43 (bir yuz to'qson yetti million bir yuz yetmish yetti ming to'qqiz yuz o'ttiz to'qqiz so'm 43 tiyin, QQS bilan) so'm miqdorida kelishildi. Shartnoma summasi QQS bilan.

| № | Xizmatlar nomi | O'lchov birligi | Miqdori | Birlik uchun shartnoma narxi | Shartnomaning umumiy qiymati (bitim summasi) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Наладка, профилактическое испытания и капитальный ремонт на энергетическое хозяйство насосной станции "Дарбанд-1" | услуг | 1 | 62196040,56 | 62196040,56 |
| 2 | Наладка, профилактическое испытания и капитальный ремонт на энергетическое хозяйство насосной станции "Дарбанд-2" | услуг | 1 | 59230998,82 | 59230998,82 |
| 3 | Наладка, профилактическое испытания и капитальный ремонт на энергетическое хозяйство насосной станции "Айкул" | услуг | 1 | 50032038,39 | 50032038,39 |
| | Jami QQS siz | | | | 171459077,77 |
| | Qo'shilgan qiymat solig'i | | | | 25718 861,66 |
| | jami | | | | 197177939,43 |

Ushbu shartnoma narxlarining kelishuv dalolatnomasi "Buyurmachi" va "Bajaruvchi" orasidagi o'zaro hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirishga asos bo'lib hisoblanadi.

**"ISh BAJARUVChI"** **"BUYuRTMAChI"**